



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “24” fevral

QAROR № 4

Toshkent sh.

**Sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar
narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796- son qarori bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” doirasida statistika kuzatuvlarini bosqichma-bosqich optimallashtirish va respondentlarga hisobot topshirish yukini kamaytirish natijasida sanoat korxonalarining narxlar statistikasiga oid ma‘lumotlarini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, Statistika agentligi **QAROR QILADI:**

1. Sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 29- martdagi “Sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 13- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov